



## “O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI” AJ BO'YICHA YO'LOVCHILARGA SOTILGAN CHIPTALARNI TAHLIL QILISH

**Butunov Dilmurod Baxodirovich**

*Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, PhD*

**Shukurov Murodulla Sulaymon o'g'li**

*Toshkent davlat transport universiteti*

*“Transport tizimlari boshqaruvi” fakulteti 4-bosqich talabasi*


“O'zbekiston temir yo'llari” AJ, “O'zbekiston havo yo'llari” va “O'zbekiston avtomobil yo'llari” kompaniyalarida yo'lovchilarga servis xizmatlarini ko'rsatish chiptaxonalardan boshlanadi. Chiptaxona xodimlari yo'lovchilarga yo'nalish bo'yicha mavjud poyezdlar ketish vaqtlari haqida ma'lumot taqdim etishi, mavjud qo'shimcha servis xizmatlarni (choy, kofe, mavjud taomlarni tanovvul qilishini, sug'urta v.h.k) taklif qilishi, ularga xushmuomila bo'lishlari kerak.

Bundan tashqari yo'lovchilar chiptalarni elektron tarzda ham xarid qilish imkoniyati mavjud. Bir-biriga mantiqiy bog'langan veb-sahifalar mavjud bo'lib, elektron yo'l hujjatlarini rasmiylashtirishni temir yo'llarda <https://e-ticket.railway.uz> manzili va “Uzrailway Tickets” nomli brend ostida, maxsus platformalar (iOS, Android) uchun ishlab chiqilgan, smartfon, planshet va boshqa mobil qurilmalarda ishlashga mo'ljallangan elektron dasturiy ta'minotlar, havo yo'llarida <https://book.uzairways.com/uz/> manzili va avtomobil yo'llarida <https://avtoticket.uz/> (faqat Toshkent shahridan viloyatlarga) manzili orqali amalga oshirish mumkin.

Agarda yo'lovchida imtiyozli chipta xarid qilish imkoniyati bo'lsa, o'zi bilan belgilangan tartibdagi tegishli hujjatlarni ham chiptaxona hodimlariga taqdim qilishi shart. Bugungi kunda temir yo'lda mavjud bo'lgan chegirmali chiptalar hamda “O'zbekiston temir yo'llari” AJ rahbariyati tomonidan tasdiqlanayotgan yangi chegirmali chiptalar faqatgina chiptaxonalarda rasmiylashtiriladi. Chegirmalik chiptalarni rasmiylashtirishni ushbu veb-resursda imkoniyati mavjud emas (yosh bolalarga chegirmali chipta rasmiylashtirish bundan mustasno (<https://e-ticket.railway.uz/lang-uz/lgoty-i-bonusy.html>))

Imtiyozli biletlar haqida batafsil tanishib chiqsak. Ayrim toifadagi fuqarolar uchun imtiyozlar va bonuslar berish tartibi “Yo'lovchilar, bagaj va yuk tashish” O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti qoidalari tomonidan belgilangan (13.04.2012 sm, N 109-sonli qarori bilan tasdiqlangan).

- Yo'lovchi o'zi bilan birga yo'lovchi tashish poyezdida yo'l haqi to'lamasdan 5 yoshgacha bitta bolani alohida joy band qilmasdan olib yurish huquqiga ega. 5 yoshgacha bolaga chipta rasmiylashtirish yo'l haqi to'lamasdan ota-onalar chiptasiga asosan amalga oshiriladi.





• Yo'lovchi bilan bittadan ortiq 5 yoshgacha bolalar ketayotgan bo'lsa, ulardan biri yo'l haqi to'lanmasdan, qolganlari – tarif qiymatidan 50% chegirma bilan alohida joy taqdim qilinib tashiladi.

• 5 yoshdan 10 yoshgacha bolalarga ham tarif qiymatidan ellik foiz chegirma bilan alohida joy beriladi.

• 10 yoshdan oshgan bolalar uchun chiptalar kattalar sifatida sotib olinadi.

Temir yo'llarida yiliga bir marta bepul yurish huquqi (boorish va kelishga) quidagilarga taqdim qilingan:

1) Sovet Ittifoqi Qahramonlari va Shon-shuhrat ordenining uch darajadasi bilan taqdirlangan shaxslarga;

2) Yarador bo'lgan harbiy ishchilar va xizmatchilardan 1 va 2-guruh urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shahslarga;

3) Chernobil AES dagi avariyaning bartaraf etuvchilari nogironlariga (O'zbekiston Respublikasi hududida).

Temir yo'llarda chiptaning to'liq qiymatidan ellik foiz chegirmalar bilan yiliga bir marta yurish huquqi (boorish va kelishga) talonlarga almashtirish va guvohnoma taqdim etish bo'yicha quyidagilarga berilgan:

1) 3-guruh urush nogirinariga;

2) Urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shahslarga.

Imtiyozli chipta olish uchun chipta kassasiga chegirma olish huquqini beruvchi quyidagi tegishli hujjatlar taqdim qilinishi kerak:

✓ "Urush nogironi guvohnomasi";

✓ "Urush qatnashchisi guvohnomasi";

✓ "Imtiyozga huquqi to'g'risida guvohnoma";


✓ "Talabalar uchun "Talabalik guvohnomasi"".

"Faxriy temiryo'lchi" nishoni bilan taqdirlangan temir yo'l transporti xodimlari yil mobaynida MDH bo'ylab bepul yurish huquqiga (borish va kelishga) egadir, buning uchun xizmat guvohnomasi va yozib berilgan temir yo'l chiptasi taqdim qilinishi zarur.

Bugungi kunda mavjud bo'lgan chegirmali chiptalar hamda "O'zbekiston temir yo'llari" AJ rahbariyati tomonidan tasdiqlanayotgan yangi chegirmali chiptalar faqatgina chiptaxonalarda rasmiylashtiriladi. Chegirmali chiptalarni rasmiylashtirishni ushbu veb-resursda imkoniyati mavjud emas. Yosh bolalarga chegirmali chipta rasmiylashtirish bundan mustasno.

### 2021-yilning iyul-dekabr oylari uchun

Oylar nomi	Taqdim etilgan chegirma turi va soni				
	УВОВ/ИВ ОВ	СТУД	СТУД1	ИНВ/ИНВД	ПЕНС
Iyul	8	-	99	152	752
Avgust	87	-	5 192	2 312	9 890
Sentyabr	161	-	3 785	3 558	11 027
Oktyabr	156	-	3 120	3 591	11 852







<b>Noyabr</b>	161	81	3 823	3 660	11 673
<b>Dekabr</b>	190	9 134	8 010	2 752	8 174

**Eslatma:** УВОБ - Ulug' Vatan urushi qatnashchilari, ИВОБ - Ulug' Vatan urushi nogironlari, СТУД - talabalar uchun, СТУД1- Qoraqalpog'istonda doimiy ro'yxatda yashovchi talabalar uchun, ИНВ -nogironligi bor shaxslarga, ИНВД -bolalikdan nogironligi bor bo'lgan shaxslar uchun, ПЕНС -nafaqaxo'rlar uchun taqdim etiladigan chegirma turi.

### 2022-yilning iyul-dekabr oylari uchun

Oylar nomi	Taqdim etilgan chegirma turi va soni				
	УВОБ/ИВ ОВ	СТУД	СТУД1	ИНВ/ИН ВД	ПЕНС
<b>Yanvar</b>	133	18 756	82	6	22
<b>Fevral</b>	124	25 491	54	-	16
<b>Mart</b>	116	318	-	-	2
<b>Aprel</b>	99	-	-	-	-
<b>May</b>	150	-	-	-	1
<b>Iyun</b>	97	-	-	-	-
<b>Iyul</b>	101	-	-	-	-
<b>Avgust</b>	109	295	-	-	6

**Eslatma:** УВОБ - Ulug' Vatan urushi qatnashchilari, ИВОБ - Ulug' Vatan urushi nogironlari, СТУД - talabalar uchun, СТУД1- Qoraqalpog'istonda doimiy ro'yxatda yashovchi talabalar uchun, ИНВ -nogironligi bor shaxslarga, ИНВД -bolalikdan nogironligi bor bo'lgan shaxslar uchun, ПЕНС -nafaqaxo'rlar uchun taqdim etiladigan chegirma turi.

Jadvallardan ko'rishimiz mumkinki bugungi kunda birgina temir yo'l transportida imtiyozli biletlar sotilish oyiga taxminan 30000 nafar yo'lovchilar foydalanishmoqda. Bu esa o'z navbatida ularga chiptaxonalarga borish kabi noqulayliklar tug'dirmoqda.

### BIBLOGRAFIK IQTIBOSLAR:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-2001187?ONDATE=08.02.2022>
2. Butunov D., Abdukodirov S., Khusenov U., Buriyev Sh., *Methods of improving technological practices of processing of combined trains at intermediate stations*, The scientific heritage, Vol 1, No 67 (67), rr. 39-43, (2021), DOI: 10.24412/9215-0365-2021-67-1-39-43 (<http://www.scientific-heritage.com/wp-content/uploads/2021/06/The-scientific-heritage-No-67-67-2021-Vol-1.pdf>)
3. Imtiyozlar va bonuslar - O'zbekiston temir yo'li: <https://e-ticket.railway.uz/lang-uz/lgoty-i-bonusy.html>
4. Abdukodirov Sardor, Dilmurod Butunov, Mafratkhon Tukhakhodjaeva, Shukhrat Buriev, Utkir Khusenov. (2021). Administration of Technological Procedures at Intermediate Stations. Design Engineering, 14531-14540. Retrieved from <http://thedesignengineering.com/index.php/DE/article/view/6581>





5. Butunov, D.B. (2020) "Substantiation of the input of the parameters of the unprofitable loss of time when norming the time of the duration of the wagons on the sorting station" *Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers*: Vol. 16: Iss. 3, Article 16.

(<https://uzjournals.edu.uz/cgi/viewcontent.cgi?article=1191&context=tashiit>)

6. Shaxnoza, U. (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA LANDSHAFT SO'ZLARINING QIYOSIY TAHLILI VA FRAZEALOGIYA. *Uzbek Scholar Journal*, 4, 53-55.

7. Shaxnoza, U. (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA LANDSHAFT SO'ZLARINING QIYOSIY TAHLILI VA FRAZEALOGIYA. *Uzbek Scholar Journal*, 4, 53-55.

8. Shaxnoza, U. (2022). BASICS OF COMPARATIVE STUDY OF COSMONIMS (SUN, MOON...) IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 2, 25-28.

9. Shaxnoza, U. (2022). BASICS OF COMPARATIVE STUDY OF COSMONIMS (SUN, MOON...) IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 2, 25-28.

10. Shaxnoza, U. (2022, January). THE CONCEPT OF COSMONICS AND ITS NATURE. In *Conference Zone* (pp. 132-133).

11. Shaxnoza, U. (2022, January). THE CONCEPT OF COSMONICS AND ITS NATURE. In *Conference Zone* (pp. 132-133).

12. Усмонова, Ш. (2021). МЕДИАДИСКУРСДА ЭКСПРЕССИВЛИК ТЕНДЕНЦИЯСИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(2).

13. Усмонова, Ш. (2021). МЕДИАДИСКУРСДА ЭКСПРЕССИВЛИК ТЕНДЕНЦИЯСИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(2).

14. Shaxnoza, U. (2022, January). THE CONCEPT OF COSMONICS AND ITS NATURE. In *Conference Zone* (pp. 132-133).

15. Shaxnoza, U. (2022, January). THE CONCEPT OF COSMONICS AND ITS NATURE. In *Conference Zone* (pp. 132-133).

16. Urinova, F. A., & Usmonova, S. Y. Q. (2019). IN CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM HUMANISTIC CHARACTERISTICS OF PARTNERSHIP PEDOGOGY. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(12), 317-322.

17. Urinova, F. A., & Usmonova, S. Y. Q. (2019). IN CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM HUMANISTIC CHARACTERISTICS OF PARTNERSHIP PEDOGOGY. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(12), 317-322.

